

S.R. TOPILDIYEV

1994,78

The central part of the cover features a complex abstract graphic. It includes a large, semi-transparent blue circle with a white outline, overlaid on a grid of thin blue lines. A thick, dark blue diagonal line cuts across the circle. The background is a mix of solid colors: a light beige on the left, a bright orange and a dark brown diagonal band, and a deep blue at the bottom left. The overall aesthetic is modern and technical.

**INSTITUTLAR VA
IQTISODIY TIZIMLAR**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

S.R.TOPILDIYEV

**INSTITUTLAR VA IQTISODIY
TIZIMLAR**

**(Kredit-modul bo‘yicha)
(Darslik)**

*O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan 5A230102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)
mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2022

UO‘K: 330.101.8

KBK 65.01ya73

T 86

**S.R.Topildiyev. Institutlar va iqtisodiy tizimlar.
(Darslik) – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-
matbaa uyi», 2022 – 232 b.**

ISBN 978-9943-8617-5-6

Darslik “Institutlar va iqtisodiy tizimlar” fani dasturiga muvofiq yozilgan bo‘lib, unda Institutlar to‘g‘risida tushuncha, institutsional qarashlarning metodologik asoslari, obykti, predmeti va asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, qo‘llanmada jamiyatda rasmiy va norasmiy institutlarning ro‘liga, bozor instituti, shartnomalar, transaksiya xarajatlari, xufyona iqtisodiyot, mulkchilik, firma, davlat va uy xo‘jaligi nazariyalarining asoslarini yoritishga keng o‘rin berilgan bo‘lib o‘quv qo‘llanma 5A230102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligining “Institutlar va iqtisodiy tizimlar” fanidan darslik sifatida tavsiya etiladi.

Mazkur darslik oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat yo‘nalishi talabalari, magistrantlar, doktorantlar hamda o‘qituvchilar, shuningdek Institutlar va iqtisodiy tizimlar bilan qiziquvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 330.101.8

KBK 65.01ya73

Taqrizchilar:

A.V.Voxobov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

A.F. Rasulev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

X.Asatullayev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.

ISBN 978-9943-8617-5-6

KIRISH

Institutsional nazariyalar zamonaviy qarashlar va xo‘jalik amaliyotini institutsional o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqligida o‘rganuvchi zamonaviy iqtisodiy fikrlarning ilmiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan nazariy yo‘nalishlardir. Ushbu yo‘nalish G‘arb mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlanishi, talab va taklif qonunlarining ishlashi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xulq-atvori, bozor va ma‘muriy mexanizmlarning faoliyat ko‘rsatishi, iqtisodiy o‘sish va shu kabi boshqa bir qator jarayonlar va hodisalarni o‘rganishda keng tadbqiq etib kelinmoqda.

Bularning barchasi jamiyatda mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlarini takomillashuviga, moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bois institutsional muhitni faollashtirish, faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiyotni bilish va uni rivojlantirish qonuniyatlarini belgilashning samarali vositasi zarur. Ana shunday vositalarni amalda qo‘llash uchun institutsional nazariyalarni bilish o‘ta muhim hisoblanadi.

Bu o‘z navbatida vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirish yuzasidan belgilab bergan mamlakatni modernizatsiya qilish, kichik tadbirkorlikni faol rivojlantirish, aholi turmush sifatini yuksaltirish yo‘nalishlarini izchil amalda ijrosini ta‘minlash masalalarini hal etishda “Institutsional nazariyalar” fanining nazariy va amaliy vositalari alohida o‘rin tutadi.

Har qanday davlat iqtisodiyoti institutsional muhitni tashkil etuvchi ma‘lum bir institutlar doirasida faoliyat yuritadi va o‘zgarib boradi. Institutsional o‘zgarishlar doimiy davom etadigan, amaliy vaziyatga yangicha talabning qo‘yilishi, texnika va texnologiyalarning yangilanib borishi, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning takomillashuvi, holatga kreativ yondoshuvlarning ko‘chayishi va boshqa real voqiyliklar ta‘sir etadigan nazariyalardir.

Institutsional nazariyalar qaror topishining ilk davrida institutsional qarashlarning dastlabki gipotezalari shakllandi va tamoyillari ishlab

chiqildi hamda jamiyat rivojlanishidagi roli asoslandi. Bunda institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati, o'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorliklarni modellashtirish orqali reja va bozor institutining asosiy jihatlari izohlab berildi.

Institutsional nazariyalarda asosiy o'rinni mulk huquqi egallaydi. Bunda mulk institutsional nazariyalarning obyeksi sifatida qaraladi va mulk huquqlari nazariyasi yaratiladi. Asosiy e'tibor mulkiy poliformizmning muhimligiga qaratiladi.

Institutsionalizmدا firmalar faoliyatining institutsional tahlili keng o'rin olgan. Bunda shartnomalar tushunchasi va uning turlari, tashkilotni amaliy tahlil qilish nazariyasi, uy xo'jaligi va uning xillari, transaksiya va transformatsiya xarajatlari bilan bog'liq nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Institutsionalistlar o'z g'oyalarini rivojlantirib, iqtisodiyot turlarining talqinini beradi. Ular davlatlar xillarini tadqiq qilib, davlatga institutsional tashkilot sifatida qaraydilar. Iqtisodiyotni rasmiy va norasmiy turlarga ajratadi va iqtisodiy munosabatlarga xufyona iqtisodiyotning ta'sirini ochib beradi. Rivojlanishning institutsional va innovatsion turlarini aloqadorlikda taraqqiy etishini ko'rib chiqadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida iqtisodiyotning yangi xo'jalik yurituvchi subyektlari – yirik aksiyadorlik jamiyatlari, xolding kompaniyalar va xususiy mulkchilikning turli shaklidagi korxonalar barpo etildi. Shu bilan bir vaqtda ular faoliyat yuritishini belgilovchi rasmiy qoidalar (konstitutsiya, qonunlar, farmonlar va boshqalar)ni va norasmiy cheklovlarni o'z ichiga oluvchi institutsional muhit yaratildi. Ana shu muhit jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini takomillashuviga, mavjud salohiyatlardan, ayniqsa inson kapitalidan samarali foydalanishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Kitobxonlar milliy iqtisodiyotning shakllanish jarayonlarini undagi tarkibiy o'zgarishlarni, iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish usullarini bilishlari, shuningdek, iqtisodiyotning tarmoq tizimini va ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda ishlab chiqarishning